

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:41 (67206)
2018-yil 8-oktabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

E'TIROF

- Bugun ona
Vatanimizda
ustozlarning
mashaqqatli
mehnati har qa-
chongidan-da yuk-
sak qadrlanmoqda.

Men shunday
baxtli yurtida
yashayotganim-
dan, O'zbekiston
farzandlariga
bilim berayotga-
nimdan faxrlana-
man, - deydi Sur-
xondaryo viloyati,
Termiz shahridagi
6-umumta'lim
maktabi o'qituv-
chisi Nazokat
Annakulova.



MUTOLAADAN CHARCHAMAYMAN

Joriy yil bog'cha
yoshidagi bolalarning
xorijiy tillarni tez va
oson o'rganishlari
uchun innovatsion
loyiha ustida ish olib
bordim. Ushbu loyi-
ham bilan O'zbekiston
Xotin-qizlar qo'mitasi
tomonidan o'tkazilgan
«O'zbekiston ixtirochi
ayollarining 100 ta
eng yaxshi innovatsion
loyihasi» Respublika
tanlovida muvaffaqi-
yatli ishtirok etdim.



2-bet

MAKTABDAGI ZO'R BAYRAM



Ushbu ajoyib bayramda ustozlar tomoshabin-u
aziz mehmonga aylandi. Hatto maktab direktori
Lazizjon Saidov tadbirni tomosha qilib, bolalarni
olqishlashdan charchamadi.

3-bet

Murod TILLAYEV

«TEMURBEKLAR MAKTABI» TURKUMIDAN



Shu kecha tushimga
Temur bobom kirib-
dilar. Boshimni si-
lab, keyin yelkamga
qoqib: «Dadil bo'l,
o'g'lon! Seni kela-
jakda buyuk ishlar
kutyapti!» debdilar.
Men ham «Temur-
beklar maktabi»ga
kirsam, keyin ulti
harbiy bilim yurtida
o'qisam. Hayotimni
Vatan himoyasiga
bag'ishlasam, deb
o'ylab turuvdim.

(Qissa)

6-bet

Qadimda keksa bir ustoz shogirdlariga saboq berayotib, negadir tez-tez o'rnidan turar, so'ng yana joyiga o'tirib, mashg'ulotni kelgan joyidan davom ettirarkan. Tabiiyki, bu hol o'quvchilar e'tiborini o'ziga tortibdi. Shunda bir bolakay muallimdan buning sababini so'rabdi. Ular esa, «Eshik oldida ustozimning nabirasi o'rtoqlari bilan birga o'ynayapti. Shu bois, hurmat yuzasidan o'rnimdan turmoqdaman», degan ekan.

Ha, barchamizni ilm atalmish sehrlil olamga oshno etgan, ong-u shuurimizda sof insoniy fazilatlarini kamol topishiga beminnat hissa qo'shgan bu mehdaryo insonlar nomiga har qancha yaxshi so'z aytisak, hurmat ko'rsatib e'zozlasak, poyiga gullar sochsak, oz.

Quvonarlisi, bugun yurtimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berayotgan fidoyi ustozlarning mehnatini munosib qadrlash, ularning hurmatini joyiga qo'yish, o'qituvchi-murabbiylarning samarali faoliyat yuritishi uchun kerakli sharoitlarni yaratish ustuvor vazifaga aylandi. Prezidentimiz muallimlarning jamiyatdagi obro'sini mustahkamlash, turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha soha mas'ullari zimmasiga qator vazifalar yuklab, «O'qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman», deya sharafli kasb egalari ga yuksak ishonch bildirdi.

Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 6-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nazokat Annakulova fidoyi ustozlardan. Muallima 1971-yil Termiz davlat

pedagogika instituti (hozirgi Termiz davlat universiteti)ni tamomlagach, shahardagi 2-, so'ng 4-umumta'lim maktablarida samarali faoliyat olib bordi. 2000-yildan to bugungi kunga qadar 6-umumta'lim maktabida o'quvchilarga saboq berib kelmoqda.

Ustoz qisqa muddat ichida maktab o'quvchi va murabbiylari orasida hurmat qozondi. Bugun ta'lim maskanida mehnat qilayotgan yosh murabbiylar ularning pedagogik faoliyatini o'zlari uchun har tomonlama ibrat deb biladilar, ustozga o'xshashga intiladilar.

Nazokat muallima 1998-yil «Xalq ta'limi a'lochisi», 2001-yil «O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligi» ko'krak nishonlari hamda 2010-yil «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

– Bugun ona Vatanimizda ustozlarning mashaqqatli mehnati har qachongidan-da yuksak qadrlanmoqda. Ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor tufayli farzandlarimizning bilim olishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi, iqtidor va iste'dodini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.



Shu yil Nazokat ANNAKULOVA «Ustoz va murabbiylar kuni» arafasida Prezidentimiz Farmoni bilan «O'zbekiston xalq o'qituvchisi» unvoniga sazovor bo'ldi.

Men shunday baxtli yurtda yashayotganimdan, O'zbekiston farzandlariga bilim berayotganimdan faxrlanaman, – deydi tajribali ustoz.

Sa'dullo TURSUNOV

HOKIM YOSHLAR BILAN UCHRASHDI

Har gal viloyatimiz hokimi bilan uchrashuvga katta ishtiyoq, yangi takliflar bilan boramiz. Ushbu tadbirda yoshlar bilan bog'liq masalalarni hal etish, iqtidorli tengdoshlarimizni rag'batlantirish va ba'zilarini ogohlantirish an'anaga aylangan.

Toshkent viloyati, Bekobod shahrida o'tkazilgan uchrashuvda viloyatimiz nomiga sharaf keltirgan «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sovrindorlarini Toshkent viloyati hokimi G'ulomjon Ibragimov yana bir bor qutlab, ularga o'z sovg'alarini topshirdi. Shundan so'ng, o'quvchi-yoshlar tomonidan turli takliflar o'rta qatnashildi. Ayniqsa, Olmaliq shahridagi maxsus maktab-internati o'quvchilarining iltimosi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Opa-ukalarning takliflari esa shundan iborat bo'ldi:

– Biz eshitish va gapirishni bilmaymiz, ammo ko'zlarimiz orqali atrof-muhitni his etamiz. Shunday ekan, «Bolajon» telekanalida ko'rsatilayotgan ko'rsatuv va multfilmlarning ayrimlarini tarjima qilib, ekranning bir chekkasida bizning tilimizda namoyish etilishini istardik. Bu butun maktabimiz o'quvchilarining iltimosidir.

Qizaloqning taklifi o'rinni ekanini ta'kidlagan viloyat hokimi masalani ijobiy hal qilishga va'da berdi.

Shundan keyin Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi, yosh ijodkor do'stimiz Otabek Bakirov ham o'z taklifini bildirdi. Unga ko'ra, endilikda viloyatlik yosh qalamkashlarning ijod namunalari saralanib, to'plam hoida nashr etilishi rejalashtirildi.

Ajoyib uchrashuv va muloqotdan so'ng biz yoshlar ham hokim buvaga faqat yaxshi o'qib, izlanishdan tolmashlikka so'z berdik.

Mardona ZOKIROVA,
Respublika Yosh Ijodkorlar
Kengashi a'zosi

MUTOLAADAN CHARCHAMAYMAN

Kitob misli oftob, deganlari rost ekan. Inson quyosh nurisiz yashay olmagandek, kitobsiz ham umrni mazmunli o'tkaza olmaydi.



Ba'zi dugonalarim bo'sh vaqtlarini kompyuter va qo'l telefonidagi turli yozishmalar bilan o'tkazadi. Ba'zilar esa oynayi jahon orqali yoshimizga mos bo'lmagan turk, koreys seriallarini tomosha qilishadi. Men ular vaqtlarini behuda sarflayotganlariga achinaman. Buning o'rni xarajiy tillarni o'rgansalar yoki kitob o'qisalar qanday yaxshi bo'lardi, deya o'ylayman.

Men biror kunimni kitobsiz tasavvur qila olmayman. Bo'sh vaqtimni asosan, mutolaaga bag'ishlayman. Joriy yil bog'cha yoshidagi bolalarning xarajiy tillarni tez va oson o'rganishlari uchun

innovatsion loyiha ustida ish olib bordim. Ushbu loyiham bilan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan «O'zbekiston ixtirochi ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi» Respublika tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Shuningdek, Yaponiyada bo'lib o'tgan tinchlikni tarannum etuvchi «Esselar» tanlovida «Terrorizm bolalar nigohida» nomli ijodiy ishim bilan sertifikatga sazovor bo'ldim. Qolaversa, Rossiya va Qozog'istonda bo'lib o'tgan ilmiy anjumanlarda o'z ma'ruzalarim bilan qatnashdim.

Demak, ustozlar va kitoblardan olgan bilimlarimizning hayotda yaxshi kasb va muvaffaqiyatlarga erishishimizda o'rni katta. Kitobsiz hayot ko'lmak suvda suzishdek gap. Men esa hayotda barcha orzularimga erishishni istayman va kitob o'qishdan aslo to'xtamayman.

Nafosat ZARIPBOYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi xarajiy tillarga ixtisoslashtirilgan
maktab-litseyining 10-sinf o'quvchisi

Aziz bolajonlar! Ta'lim maskaningizda o'tkaziladigan tadbir va bayramlarda faol ishtirok etishingizga xo'p guvoh bo'lganmiz. Ammo bu gal biz mehmon bo'lgan poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 141-umumta'lim maktabidagi tantanani o'quvchilarning o'zlarini tayyorlashibdi.

MAKTABDAGI ZO'R BAYRAM

Tadbir nomini «Siz buyuksiz, aziz muallim!» deya nomlagan shovvozlarining o'qituvchilarga hurmat-u mehrlari cheksiz ekanini ularning ishtiroqidan sezish qiyin emasdi. O'sha kezda bunday bolalarga ta'lim-tarbiya berayotgan mehribon ustoz Lola opa Qurolovaga rahmat aytmiz keldi.

Shunday qilib, ushbu ajoyib bayramda ustozlar tomoshabin-u aziz mehmonga aylandi. Hatto maktab direktori Lazizjon

qoyillatadiganlar ham bor ekan. Undan keyin ingliz tilida kuylangan qo'shiq-u, she'rlar ham barchaga manzur bo'ldi. Xullas, bu kun o'quvchilar ustozlariga bor dil so'zlarini izhor etishdi.

Bayram so'ngida Saidumar Nosirov, Mohinur Abdusamotova, Oqila G'ofurjonova, Madina Ergasheva, Sevvara Bobomuhamedova kabi yigit-qizlarga jo'r bo'lib, butun zaldagi o'quvchilar qo'shiq kuyilashdi. Bu manzarani ko'rgan inson



Ustozlar uchun hozirlangan bayramni tashkillashtirishda 8-«A» sinfdagi tengdoshlaringizga yuqori sinf o'quvchilari yaqindan ko'maklashishibdi.

Saidov tadbirni tomosha qilib, bolalarni olqishlashdan charchamadi. Qizlarning rang-barang raqslarini esa guldestaga o'xshatish mumkin edi. Ayniqsa, boshlovchilar navbatni rossiyalik mehmonlarga berganida, barcha hayratga tushdi. Bilsak, o'quvchilar orasida rus xalqi kuyilariga raqsga tushishni

borki, ta'sirlanmay qolmasdi. So'z navbati kamina – muxbir opangizga berilgach esa bolajonlarga eng ezgu tilaklarni bildirdim. So'ng, ularga gazetamizning yangi sonlaridan tarqatdik. Bolalar esa «Tong yulduzi» bilan do'stlashish taklifini bildirishdi. Demak, biz hali yana bu zukko va tirishqoq muxlislarimiz davrasiga qaytamiz.

Sayyora QODIROVA

Birdan-bir haqiqiy ne'mat odamlarning bir-biri bilan muloqotidir.

UCHRASHUVDAN UCHRASHUVGACHA

Ko'pchiligingiz bo'sh vaqt bo'ldi deguncha kitob mutolaa qilishni yoqtirasiz.

Asarni o'qish jarayonida qahramonlarning hayoti, ichki kechinmalari, quvonch-u tashvishlari bilan yashaysiz. Agar ana shu kitob muallifi Siz tahsil olayotgan ta'lim dargohiga tashrif buyursa bormi, quvonchingiz ichingizga sig'maydi. Qolaversa,

Yangiyo'llik sozanda va shoir Erkin Akrom san'at va adabiyot insonni faqat go'zallikka undashi haqida aytib, yig'ilganlarga o'z she'rlaridan o'qib berdi.

So'z navbati shoir Bobur Bobomurodga berildi. U dastlab bolaligi, yoshli-



gi o'tgan davrlar haqida so'zlab, insonga badiiy adabiyot o'qish qanchalar foyda ekanini ta'kidladi. Shuningdek, mehmon ulug' allomalar – Imom al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'beklarning asarlarini o'qib ulg'ayganini esladi. O'quvchilarga o'qib berdi.

ular bilan dildan suhbatlashingiz, ijodkorning yangi ijod namunalari tinglagingiz keladi.

Ana shunday uchrashuvlardan biri Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 34-umumta'lim maktabida o'tkazildi. «She'riyat kechasi» nomli tadbirida xalqimiz suygan shoir Bobur Bobomurod, bolalar adibasi Muhayyo To'laganova, yangiyo'llik shoir va sozanda Erkin Akromlar mehmon bo'ldi.

Dastlab ijodkor, pedagog Muhayyo To'laganova inson tafakkurining shakllanishida ko'p kitob o'qish, chet tillarini mukammal o'rganishning o'rni haqida so'zladi. Qolaversa, bolaligidan Abdulla Qahhor, Oybek domlarning hikoyalari, qissa va romanlarini, Pushkinning ertaklarini sevim o'qiganliklari haqida to'lqinlanib so'zladi.

mehr-oqibat, kelajakdagi burch va mas'uliyatlari haqida ibratli voqealar aytib berdi. Inson hayoti davomida paydo bo'ladigan jumboqlarni yechishda kitobning o'rni beqiyos ekanligini alohida ta'kidladi. Yakunda shoir o'quvchilarning bir-biridan qiziq savollariga atroflicha javob berdi.

Tadbir so'ngida yig'ilganlar Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullayeva kabi el suygan san'atkorlarning Bobur Bobomurod she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlaridan tinglab, zavq olishdi.

Kecha qatnashchilari va mehmonlariga maktab rahbari Shoira opa Abdullayeva o'z minnatdorligini bildirdi.

Muzaffar AHMEDOV

OGOHI-U SERGAKMISIZ, VATANGA TIRGAKMISIZ?

Men maktabimizning Yoshlar ittifoqi sardoriman. Shu bois, o'quvchi-yoshlar hayotiga oid yangiliklar, yaratilayotgan imkoniyatlar bilan tanishib boraman.

Ayniqsa, meni Yurtboshimizning «Farzandlarimizning bo'sh vaqti, dushmanlarimizning ish vaqti» degan fikrlari sergak torttiradi va zimmmanga mas'uliyat yuklaydi. Qolaversa, ta'lim maskanimizda har bir o'quvchi biror foydali mashg'ulot bilan shug'ullanishini, o'z iqtidorini yuzaga chiqarishini istayman. Sardor sifatida tengdoshlarimni turli to'garaklarga va kitob o'qishga chorlayman. Tarix fani o'qituvchimiz M. Adizova va yoshlar yetakchisi D. Shamsiyeva ham doimo o'quvchilar o'rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga harakat qiladilar.

Bugun yurtimiz kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shunday vaqtda biz yoshlar faqat uning ravnaqiga hissa qo'shishimiz lozim. Toki, ertamiz egalarini hech qanday johillar o'z domiga torta olmasin! Biz o'zbek yoshlari doimo yaratuvchi va bunyodkor xalqning avlodlari bo'lib qolaylik!

Bahora ESANOVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi
1-umumta'lim maktabining Yoshlar ittifoqi sardori

KITOBIM NASHRDAN CHIQDI

Men bo'sh vaqtimda she'rlar mashq qilishni yaxshi ko'raman. Yaqinda «Bahor qaytdi, do'stlarim» nomli she'riy to'plamim chop etildi. Qolaversa, tumanda o'tkazilgan «Eng yosh iqtidorli shoir» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritdim.

Sizga aytсам, jurnalistika sohasiga qiziqishim juda baland. Turli kitoblarni o'qiganim sari o'zim ham maqola-yu hikoyalar yozgim keladi. Yozganlarimning ba'zilari «Pastdarg'om haqiqati», «Oqdaryo ovozi», «G'uncha» kabi gazeta-jurnallarda nashr etildi.

Eng so'nggi mutolaa qilgan romanim – O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari meni juda ta'sirlantirdi. Uni ko'zimdagi yosh bilan o'qib tugatdim. Bundan keyin ham kitob eng yaqin do'stim bo'lib qoladi.

Abbos SHODMONQULOV,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi
104-umumta'lim maktabi o'quvchisi

OQDARYONING DARYODILLARI

Bugun xorijiy tillarni o'rganish davr tabriga aylangan. Ayniqsa, ingliz tilida o'z ona tilidek ravon so'zlayotgan yoshlarni ko'rib, havasimiz ortadi. Beixtiyor, ularning ustozlariga ofarin, deymiz.

5-sinf o'quvchisi Dilshoda Kichinova ham xorijiy tillarni o'rganishga juda qiziqadi. Shu bois, ingliz tilidan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. U tahsil olayotgan Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi 45-DIUMda tarix, biologiya fanlari chuqur o'rgatiladi. Bu bilim maskanida o'z kasbining fidoyilari faoli-

Unga bolalar 6-sinfidan tanlov asosida qabul qilinadi, – deydi maktab direktori Jo'raqul aka Yusupov. – O'tgan yili «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida ona tili fanidan 8-sinf o'quvchisi Durdon Murodqosimova, o'zbek tilidan 7-sinf o'quvchisi Gulhayo Burhonova, 6-sinf o'quvchisi Shahnoza Hoshimova, 8-sinf o'quvchisi Javohir Habibovga omad kulib boqib, 1-o'rinni egalladi. Fan olimpiadasining viloyat bosqichida o'zbek tilidan 9-«V» sinf o'quvchisi Sevara Amirova, 9-«B» sinfdan Fariza Rabbimova biologiyadan 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

«Innovatsion olimpiada»ning viloyat bosqichida biologiyadan 8-sinf o'quvchisi Yulduz Usmonova 1-, fizikadan Rustam Abduqahhorovga 3-o'rin nasib qildi.

Maktabda hunar egallab, iqtidorini namoyon etayotgan o'quvchilar ham talaygina. Jumladan, «Barkamol avlod» bolalar markazida o'tkazilgan tanlovlarda maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi Shohida Bo'lakova mohir qo'llar yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Biz esa, fursatdan foydalanib, Oqdaryoning daryodil yoshlariga ta'lim-tarbiya berishga bel bog'lagan barcha o'qituvchilarga, hormang, aslo charchamang, deymiz.



yat olib boradi. Maktabning esa maqtashga arzigulik yutuqlari-yu iqtidorli o'quvchilari juda ko'p. Keling, yaxshisi, bu haqda batafsilroq to'xtalamiz.

– O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik, burchga sadoqat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadida bu yil harbiy vatanparvarlik yo'nalishida yangi sinf ochildi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

KITOBXONLAR BELLASHDI

Farg'ona shahridagi viloyat Axborot-kutubxona markaziga Ahmad Farg'oni nomi berilgan. Buyuk bobomizga munosib bo'lmoq ishtiyoqidagi yoshlar bu maskanda nafaqat ilm o'rganishadi, balki turli tanlovlarda ishtirok etishadi.

Yaqinda markazda o'tkazilgan «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovida «Temurbeklar maktabi» o'quvchilari hamda Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarda xizmat qilayotgan askarlar ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo va boshqa ijodkorlar mamlakatimizda yoshlarni kitob bilan do'stlashtirish va bu bilan ularni yot g'oyalardan asrashga e'tibor berilayotganini ta'kidlashdi.

– Xodimlarimiz yangi kutubxonachilik uslublarini joriy etib, o'quvchilarning kitobga qiziqishi-yu mehrini oshirish uchun doimo harakatda, – dedi markaz rahbari Shohidbek Aslonov.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan tanlovda yosh kitobxonlar turli shartlar bo'yicha o'zaro bellashdi. Yakunda g'oliblar kitoblar jamlanmasini qo'lga kiritdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

Kuni kecha O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash Respublika «Nuroni» jamg'armasi tashabbusi bilan «Qatag'on qurbonlari xotirasi» davlat muzeyida «Vatan fidoyi farzandlarini hech qachon unutmaydi» mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Kechada jamg'arma mutaxassislari, ziyolilar, mahalla maslahatchilari bilan birgalikda, O'zbekiston yoshlar ittifoqining poytaxtdagi 20-, 63-, 70-umumta'lim maktablari vakillari ishtirok etdi.

DOIM YODIMIZDASIZI!

USTOZIM – OTAM-ONAMI!

Maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma'nosini bilgan millatlar jonlari, mollari bilan himmat va g'ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyi rivojiga ijtilod qilurlar.

Mahmudxo'ja BEHBUDIY

Bolaligimni xotirlar ekanman, xonadonimizdagi kutubxonada mingdan ziyod turli kitoblar jamlangani ko'z oldimga keladi. Ukam, opa-singillarim bilan ularni zavq bilan mutolaa qilardik. Ayniqsa, rasmlar kitoblarni maroq bilan tomosha qilar, tushunmaganlarimizga ota-onamiz erinmay javob berishardi. Otam matematika, onam esa ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lganliklari uchun ham bolalar bilan qanday til topishish mumkinligini bilard edilar. Ular doim bilmaganlarimizni tushuntirib, ko'proq kitob o'qishimizni uqtirardilar. Shuning uchunmi, doim a'lo baholarga o'qiganmiz.

Hozirda to'rt opa-singil maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaymiz. Bizning bilimli bo'lib, kasbiy faoliyatimizda muvaffaqiyatlarga erishishimizda ota-onamizning xizmatlari beqiyos.

Fursatdan foydalanib, otam hamda onamni yaqinda nishonlangan O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy qutlayman. Doimo ulardek fidoyi ustoz bo'lishga harakat qilaman.

Hurriyatxon ASRONQULOVA,
Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi 37-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Tadbirda so'zga chiqqan muzey rahbari Baxtiyor Hasanov, filologiya fanlari doktori, professor, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi asoschilaridan biri Naim Karimov, «Vatan» fondi raisining birinchi o'rinbosari Bo'ritosh Shodiyeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Saydi Umurov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Xayrulla Lutfullayev, keksa nuroniylardan Egamnazar Qodirov, Mahmud Otaboyevlar bugungi kunda jannatmakon yurtda yashayotgan, xalq farovonligi, yurt tinchligi, jamiyat taraqqiyoti uchun befarq bo'lmagan har bir fuqaroning maqsadi mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, tinchlik uchun o'z hissasini qo'shish ekanini haqida

fikr-mulohazalarini bildirdilar. Ular yana bu maskan naqadar tabarruk ekanligini, unda o'z yoshligi, bilimi, zakovati va jonini fido etgan yurtdoshlarimiz hoki borligi, bu tabarruk go'shaga hurmat saqlagan holda, ajdodlarimizga munosib vorislar bo'lish kerakligi haqida alohida to'xtaldilar.

Shuningdek, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Chaman Jonuzoqova, talaba Abdumannop Jo'rayevlar bugungi kunda Prezident tomonidan yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularga berilayotgan imkoniyatlar haqida to'liq inlab so'zladilar.

Gulchehra KARIMOVA



8-oktabr 2018

KELAJAGI PORLOQ SHAHNOZA!

Kitob o'qigan

kishi to'g'ri yo'ldan adashmaydi, fikrlashdan to'xtamaydi, eng muhimi, ko'ngil tarbiyasini unutib qo'ymaydi.

Chindan ham kitob bilan yaqindan do'st bo'lgan insonning fikrlash dunyosi keng, kelajagi esa buyuk bo'ladi. Bugungi qah-

tomonidan o'tkazilgan «Biz gijohvandlikka qarshimiz» tanlovida 1-o'rin, «Ayaziy izbasarlari» tanlovida 2-o'rin, qiz bolalar o'rtasida bo'lib o'tgan «Yoshlar shaxmat taxtasi» musobaqasida 2-o'rinni egalladi. «Shox va mot» tanlovida esa 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Yosh iste'dod egasi Kegeyli tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi «Yosh jurnalistlar» to'garagiga ham muntazam qatnashib kelmoqda.

– Shahnoza o'zining chaqqonligi va iste'dodi bilan tengdoshlari hurmatiga sazovor bo'ldi. Yozgan she'r va hikoyalarda bolalikning eng unutilmas voqealari ixcham tarzda ifodalanadi. U bugunga qadar ko'plab tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi, – deydi ustoz Nargiza Daribayeva. Biz Shahnozaga kelajakda bundan-da yuksak parvozlar tilaymiz.

Ayjama KARAMATDINOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi



ramonimiz Shahnoza Keshnimjayeva ham mutolaaga mehr qo'yib, she'riyat olamiga dadil qadam tashlayotgan yoshlarimizdan. U Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi. Maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, turli tanlov va festivallarda faol qatnashib kelmoqda.

Shu yil «Kamalak» bolalar tashkiloti

OLTIN POYANDOZ

Yurtimizga oltin qo'ng'iroqchalarini chalib, kuz mehmon bo'lib kelganiga ham bir oydan ortiq vaqt o'tdi. Atrofga turli tusda tovlanuvchi barglardan yasalgan gilamini yozdi.

Keyin odam-
l a r g a
b i r - b i r -
d a n
s h i r i n
m e v a l a -
r i n i t o r t i q
e t d i . B i z

har qancha maqtamaylik, u kamtarlik bilan «Barchasi bobodehqonning mehnati», deydi. Kuzoyning yomg'iri esa durga o'xshaydi. Yomg'irli kunda deraza ortidan tashqariga boqib, xayol surish kimga ham yoqmaydi,

deysiz?! Men esa bu fusunkor fasl haqida o'ylaganlarimning davomini quyidagi satrlarga ko'chirdim...

Oltin kabi yaltirab barglar,
Yomg'ir tushsa, aksing ko'rasan.
Mayin-mayin esar shamollar,
Gar his qilsang, yayrab ketasan.

Zarina JO'RAYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

USTOZLAR E'ZOZDA

Kuni kecha maktabimizda «Ustoz va murabbiylar kuni»ga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Kechani maktabimiz rahbari, ustozimiz Chamangul opa Muhammadiyeva ochib berdi.

Tadbirda maktabimizda uzoq yillar samarali faoliyat ko'rsatgan faxriy ustozlar ishtirok etdi. Ta'lim maskanimizdagi faol, iqtidorli o'quvchilar ustozlarni she'rlar, kuy-qoshiqlar bilan muborakbod etib, ularga guldastalar hadya qildi.

Mohidil ABDULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 15-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi



Lesson 41

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

IDIOMS



What for? / why? – Nima uchun?

That's not the point – Buning aloqasi yo'q.

What are you driving at? – Nima demoqchisiz?

It does not prove thing. – Bu hech narsani o'zgartirmaydi.

It is all the same to me. – Hammasi baribir.

It is beside the point. – Bu mutlaqo boshqa masala.

Use your own judgement. – Bu sizning hukmingizga havola.

Ma'mura G'ULOMOVA

FIND A SUITABLE PICTURE TO EACH TEXT



This person is who someone teaches pupils how to play an instrument. For example, the piano or guitar. Moreover, they give singing and voice lessons. They may also teach appreciation, theory or composition classes to advanced children.

They are who lead pupils in games and physical sporting events that are aimed at developing children's physical health and abilities. They encourage students to adopt healthy habits and motivate them to pursue healthy physical activities.

They are essential to personal, educational and professional success. Those teachers open us a new literary world. They help pupils learn how to read and write. During the lessons pupils learn by hart interesting poems and novels.

PLACE THE WORDS IN THE RIGHT COLUMN. YOU CAN ADD MORE WORDS YOUR OWN!

Words: mix, donation, solo, pleased, happy, smoothly, commercial, permit, age, cure, slowly, moody, whisper, often, equipment, bizarre, seldom, novel, transform, remarkable.

Verb	Noun	Adjective	Adverb
			late
	brand		
Take up		incredible	

Take up (verb): to become interested in new activity and to spend time doing it.
Brand (noun): a product that a particular company makes.
Bizarre (adjective): very unusual and strange.
Late (adverb): after the usual time.

Dinora ABDULLAJONOVA

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

ERKALAR TONGGI SABO

Qoraqalpoq o'quvchilari Jo'ldasboy Nurilayev va uning ijodi haqida yaxshi bilishadi. Yaqinda Ochil Tohir tomonidan uning «Sumalak» nomli kitobi o'zbekchalashtirildi. Endi Jo'ldasboyning she'rlarini o'zbek o'quvchilari ham bemalol o'qiy oladi.

«Tong yulduzi» gazetasi orqali ijodkorning turkum she'rlaridan sizga ham ilindik.

YOMG'IR

Ko'm-ko'k, tiniq osmonni,
Qopladi qalin bulut.
Yashin tushib shu zamon,
Chaqmoq chaqib yondi o't.

Guldiragan tovushdan,
Bulut qati so'kildi.
Dur-marvarid tomchilar,
Ona yerga to'kildi.



QADRLAYMAN MEHNATNI

Mehnatning noni shirin,
His etib bu hikmatni,
Artib peshonam terin,
Qadrlayman mehnatni.

Kuchim sig'mas ichimga,
Mehnat qilmasam bir zum,
Sodiq qolib burchimga,
Yayrab dildan yashnagum.

Yalqovlik yomon illat,
Rangi-ro'ying somondir.
Uyatlib yurt-elat,
Terga botish yomondir.

Jo'ldasbay NURILLAYEV

KUN TARTIBIM

Sahar turib o'rnimdan,
Maktab tomon oldim yo'l.
Qarasam, saxiy quyosh,
Nurin sochayapti mo'l.

O'quvchilar shoshilib,
Qo'lga sumkasini olib.
Boradilar maktabga,
Men ham hamroh ularga.

O'qituvchimiz sinfda,
O'tiribdilar to'rda.
Chehralari quyoshdek,
Kayfiyatlar zo'rda.

Salom-alikdan keyin,
So'z boshlarlar ustozim:
- Keldingmi, ona qizim?
Bilim berayin o'zim.

Vazifalar tayyormi?
Kitob-daftarlar bormi?
Qani oching kitobni,
Kim aytadi saboqni?

Vazifani bajarib,
O'qiganlar sher bo'lar.
Dangasalik qilganlar,
Doim uyaliq qolar.

Maftuna RAZZOQOVA,
Buxoro viloyati, Romitan
tumanidagi 37-umumta'lim
maktabining 9-«A» sinf
o'quvchisi

BOBOMGA

Bobom kirdi yetmishga,
Kirsin minglarga, deymen.
So'zlar bizga o'tmishdan,
Quloq tutib tinglayman.

Bobomning yuzlarida,
Tabassum bor hamisha.
Mehr bor ko'zlarida,
Bizni chorlar o'qishga!

Rahmat sizga, bobojon,
Sizga quloq solamiz.
Yurtimiz bo'lsin omon,
Bizlar baxtli bo'lamiz!

Feruza MAMATQULOVA,
Navoiy viloyati, Uchquduq
tumanidagi 20-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf
o'quvchisi



QANOTLARING KAMALAK

Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring kamalak.
Seni quvib yetolmay,
Bo'ldim juda men halak.

Izingdan men chopaman,
Yashirinsang topaman.
O'ynamasang men bilan,
Undan juda xafaman.

Umida TO'RABEKOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tuma-
nidagi 38-umumta'lim maktabining
4-sinf o'quvchisi

SIZNI OYGA O'XSHATDIM

Onam, sizni gulga o'xshatdim,
Gul ham sizdek a'lo emas-da.
Bag'ringizni kunga o'xshatdim,
Bag'ringizdek issiq emas-da.

Ko'nglingizni bilmay og'ritsam,
Kechirgaysiz noshud qizingiz.
Xatoyimni qanday tuzatay,
Gaplarimdan og'rir dilingiz.

Shukronalar aytaman ming bor,
Sizday Ona bergan Olohgga.
Qancha rahmat aytam ham yetmas,
Sizni menga bergan ul zotga.

Onam, sizni nurga o'xshatdim,
Nur ham sizdek porloq emas-da.
Yuzingizni oyga o'xshatsam,
Oy ham sizdek go'zal emas-da.

Rayhona ISROILOVA,
Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on
tumanidagi 2-umumta'lim makta-
bining 5-sinf o'quvchisi

«TEMURBEKLAR MAKTABI»

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda)

O'KINCH

- Ha, Murodjon, yana yo'l qarab o'tiribsanmi? - onasiday bo'lib ketgan tarbiyachi opasining mehrga to'la ovozi o'smirning xayollarini bo'lib yubordi.

- Yo'q, endi onamdan ham, otamdan ham umidimni uzganman...

- Voy, unday dema, bolajonim. Odam o'zining tuqqan onasidan, otasidan ham yuz o'giradimi?

- Men yuz o'giriganim yo'q. Ular-ning o'zlaridan mendan voz kechib ketgan bo'lishsa, nima qilay?! Mana bu yil 9-sinfni bitiraman. Shu paytgacha na unisi, na bunisi biror marta yo'qlab kelishmadi-ku.

- Baribir, ota-ona farzand uchun ota-onaligicha qoladi, - deb tarbiyachi opasi uning yelkasidan quchdi.

- Mening otam ham, onam ham meni voyyaga yetkazgan shu Vatanim, davlatimiz. Onam meni chaqaloqligimda yo'rgaklab, shu Mehribonlik uyi eshigi oldida qoldirib ketgan ekan.

- Buni qayoqdan bilding, bolajon? - Eshitib qoldim-da. Shundan keyin kim meni boqdi, tarbiyaladi? Vatanim, xalqim!

- Dono bo'lib ketibsanmi? - Murodning ustidan yolg'ondakam kulgan bo'ldi tarbiyachi opasi. - Xo'sh, dono o'g'lim, unda derazadan ko'chaga qarab nimalar haqida xayol surib o'tirgan eding, agar sir bo'lmasa?

- Sizdan yashiradigan sirim yo'q, Surayyo opa. Mana, bu yil 9-sinfni tugataman. Yaqinda televizorda «Temurbeklar maktabi» haqidagi ko'rsatuvni tomosha qildim. O'sha maktab o'quvchilariga rosa havasim keldi. Shu kecha tushimga Temur bobom kiribdilar. Boshimni silab, keyin yelkama qoqib: «Dadil bo'l, o'g'lon! Seni kelajakda buyuk ishlar kutyapti!» debdilar. Men ham «Temurbeklar maktabi»ga kirsam, keyin oliy harbiy bilim yurtida o'qisam. Hayotimni Vatan himoyasiga bag'ishlasam, deb o'ylab turuvdim.

TURKUMIDAN

Murod TILLAYEV

- Juda yaxshi o'ylabsan, o'g'lim. Men direktorimiz bilan gaplashib ko'raman. Zarur bo'lsa, senga tavsiya xati ham yozib berishadi.

- Rostdanmi? - Bo'lmasam-chi, Mehribonlik uyimizning eng namunali tarbiyalanuvchilaridan bo'lsang.

bolasini birovga berardi.

- To'g'riku-ya, lekin... Aytgancha, nega o'zimizning Mehribonlik uyidan bola asrab olmadinglar?

- Erim rozi bo'lmadilar. O'zimga qolsa-ku... - tarbiyachi ayol jimib qoldi. - Surayyo opa, nimani o'ylab qoldingiz?

- O'zimga qolsa-ku, seni o'g'il qilib olgan bo'lardim, - deb tarbiyachi Murodjonning boshini siladi.

- O'zimga qolsa ham, sizga jon deb o'g'il bo'lardim, - deb Murodjon ko'z yoshini yashirish uchun boshini tarbiyachi opasining ko'ksiga qo'ydi. Keyin xayoliga muhim gap kelganday so'radi. - Nega unda eringiz bilan ajrashganingizdan keyin meni asrab olmadingiz?

- Eh, bolajon, bolajon! Avvaliga ota-onang kelib olib ketar deb o'yladim. Shunday esli-hushli, chiroyli bolani ham tashlab ketish mumkinmi, deb ishonmadim. Keyin katta bo'lganingda farzand qilib olishga uyaldim. Boshqalar «Davlat katta qilib bergan bolani farzandlikka olish hammaning ham qo'lidan keladi», deb ta'na qilishidan qo'rqdim. Undan keyin davlat yolg'iz ayollarga bolani ishonib topshirishi qiyin. Bola ham, ayol ham qiyinalib qoladi, deb o'ylaydi.

- Qo'yavering, xafa bo'lmang, Surayyo opa. Iltasangiz, ulg'ayib, kasbli-hunarli bo'lganimdan keyin o'zim sizga o'g'il bo'laman.

- Istayman, bolajon, judayam istayman, - dedi tarbiyachi ayol Murodjonni quchib. - Faqat keyin o'zing «Tayyorga ayyor chiqqansiz», deb menga ta'na qilmaysanmi?

- Unday demang, opa. Shundan keyin ikkisi ham derazadan tashqariga qarab jim bo'lib qolishdi. Tashqarida esa hayot qaynar - mashinalar u yoqdan-bu yoqqa g'iz-g'iz o'tib turar, odamlar qayoqqadir shoshardi...



(Qissa)

- Rahmat. Onam sizday mehribon bo'lishini istardim, - dedi ko'zlarini namlanib Murod. So'ng, bir zum jim qolib: - Sizdan bir narsani so'rasam maylimi? - dedi.

- So'ray qol.
- Farzandingiz yo'qligi rostmi?
- Rost...
- Eringiz bilan ajrashganingiz-chi?
- Buyam rost.
- Farzandingiz yo'qligi uchunmi?
- Ha.
- Nega biror qarindoshingizning bolasini asrab olmadingizlar?
- Kim ham o'zi tirik bo'lib, tuqqan

(Davomi bor)

SPORTCHILARIMIZ ARGENTINADA

Xabaringiz bor, 6-18-oktabr kunlari Buenos-Ayresda III yozgi o'smirlar Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi. Nufuzli musobaqada O'zbekiston sharafini sportning 16 turida 37 nafar sportchi himoya qiladi. Ushbu yirik sport bayramida delegatsiyamiz bayroqdori vazifasini erkin kurashchimiz Muhammadrasul Rahimov bajaradi.



O'tgan hafta delegatsiyamizning asosiy qismi okean oshib, Argentina poytaxti Buenos-Ayres shahriga yetib bordi. «Ezeiza International» xalqaro aeroportida atletlarimiz va ularning murabbiylarini Milliy olimpiya qo'mitasining ishchi guruhi a'zolari kutib oldi.

Eslatib o'tamiz, III yozgi o'smirlar Olimpiadasida jahonning 206 mamlakatidan 15-18 yoshdagi 3926 nafar sportchi ishtirok etadi. 32 sport turida bahslar tashkil qilinadi.

O'smirlar Olimpiya o'yinlarning tantanali ochilish marosimi 6-oktabr (Toshkentda 7-oktabr tongi) kuni bo'lib o'tadi.

S. TURSUNOV

SARALAR SARALANDI

Mamlakatimizning barcha hududlarida «Sport haftaligi»ni o'tkazish bo'yicha zaruriy choralar ko'rildi.

Respublika miqyosida 21 ta sport turi bo'yicha marafon va olimpiadalar tashkil etilib, bahslarga 687 ming nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi.

Birgina Jizzax viloyatining Jizzax shahri, Zomin, Baxmal,

G'allaorol tumanlarida 21 ta jismoniy va aqliy sport turlari bo'yicha 40 ta musobaqa va bellashuvlar tashkil etilib, ularda 5773 nafar yoshlar ishtirok etdi.

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri Olimpiya zaxiralari maktabida voleybol, basketbol, mini-futbol, kurash, boks, kikkboxing, stol tennis, dzyudo, karate kabi sport turlari bo'yicha musobaqalarda 625 nafar yoshlar ishtirok etdi. Shahar sport majmuasi oldida 5 km masofada marafon tashkil etildi.

Surxondaryo viloyati, Denov tumani o'yingohida 26 ta mahalladan 700 nafar yoshlar ishtirokida badantarbiya o'tkazildi. Shuningdek, tumanning 1 010 nafar yoshlari ishtirokida 2 km masofada yugurish marafoni tashkil etildi. Tumandagi qishloq-xo'jaligi kasb-hunar kollejida voleybol, basketbol, Bolalar va o'smirlar sport maktabida futbol, arqon tortish, badiiy gimnastika, stol tennis, 4-umumta'lim maktabida esa qo'l to'pi, tosh ko'tarish bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, 433 nafar yoshlar qamrab olindi.

Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida voleybol, basketbol, futbol, arqon tortish, badiiy gimnastika, stol tennis, tosh ko'tarish, kurash, boks va taekvando musobaqalarida 1 ming 253 nafar yoshlar qatnashdi.

Shukrulla G'ULOMOV

«YOSHLIK» G'OLIB BO'LDI

Aziz bolajonlar! Eng sevimli musobaqangiz bo'lmish «Quvnoq startlar»ning g'oliblari bilan tanishishni istaysizmi? Kuni kecha Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi Respublika Mehribonlik uylari sog'lomlashtirish oromgohida 36-Quvnoq startlar Respublika musobaqalarining final o'yinlari bo'lib o'tdi.

Dastlab jamoalar to'rt guruhga bo'linib, yettita shart bo'yicha o'zaro bellashdi. «To'siqlar osha yugurish», «Tuneldan o'tish», «Futbolchilar bahsi» kabi shartlarda bolajonlar o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Qizg'in bellashuvlar yakuniga ko'ra Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi 9-umumta'lim maktabining «Yoshlik» jamoasi g'alaba qozondi. Keyingi o'rinlar Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 55-umumta'lim maktabining «Nurafshon» va Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi 18-umumta'lim maktabining «Parvoz» jamoalariga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar Xalq ta'limi vazirligi, «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyatining kubok va medallari bilan taqdirlandi.

Jasur MAMADAMINOV,
«Urgut sadosi» gazetasi muxbiri

SHAXDAM QADAMLAR

Yaqinda poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Shaxdam qadamlar» shiori ostida harbiy-vatanparvarlik sport festivali bo'lib o'tdi. Toshkent shahar Mudofaa ishlari boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan mazkur musobaqada 500 yaqin yoshlar qatnashdi.

Shu kuni Qurolli Kuchlar zaxirasiga bo'shatilgan ofitserlar umumta'lim maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ilk bor tashkil etilgan ushbu harbiy-sport festivali yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat va

sog'lom raqobat, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamladi. Musobaqa ishtirokchilari «Shaxdam qadamlar bilan yurish», «Safda qo'shiq kuylab o'tish», «Turnikda tortilish», «Arqon tortish», «Pnevmatik miltiqdan o't otish», «Basketbol to'pini savatga tushirish», «400x100 estafeta yugurish» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kitoblaridan tuzilgan test savollarini yechish kabi shartlar bo'yicha bellashdi.

Natijalarga ko'ra, 1-o'rin Yunusobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabi jamoasiga nasib etdi. 105-umumta'lim maktabi vakillari 2-, 272-umumta'lim maktabi jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

«Shaxdam qadamlar» shiori ostida tashkil etilgan mazkur harbiy-sport festivali uyushmagan yoshlarni birlashtirish, ta'lim dargohida intizomni mustahkamlash va yoshlar o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, burchga sadoqat hissini shakllantirishi, shubhasiz.

Shohruh MUSAYEV

